


IV. INVESTITSİYALAR VA QURILISH

2025-yil yanvar-dekabr oylarida 43 113,2 mlrd. so‘m asosiy kapitalga investitsiyalar o‘zlashtirilib, o‘shish sur‘ati o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 121,3 % ni tashkil etdi.

Markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan 4 339,0 mlrd. so‘m yoki jami investitsiyalar hajmining 10,1 foiz va o‘tgan yildagi ko‘rsatkichga nisbatan 126,7 % o‘zlashtirildi.

Mos ravishda, markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan 38 774,2 mlrd. so‘m yoki jami investitsiyalar hajmining 89,9 foiz va o‘tgan yildagi ko‘rsatkichga nisbatan 120,7 % o‘zlashtirildi.




Asosiy kapitalga investitsiyalar yangi asosiy fondlarni sotib olish va takror ishlab chiqarishga yo‘naltirilgan xarajatlar majmuini bildiradi.

Asosiy kapitalga investitsiyalarning statistik hisobi, qo‘shimcha qiymat solig‘ini qo‘shgan holda, hisobot davrida amaldagi narxlarda, to‘lov amalga oshirilgan paytdan qat‘iy nazar, haqiqatda o‘zlashtirilgan hajm miqdorida amalga oshiriladi.


So‘nggi 5 yildagi asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi dinamikasi shuni ko‘rsatmoqdaki, u deyarli 2,9 martaga ko‘payib, o‘shish tendensiyasiga ega bo‘lmoqda.

2025-yil yanvar-dekabr oylarida asosiy kapitalga investitsiyalarning hajmi dinamikasi, mlrd. so‘m



So‘ngi yillarda o‘shish sur‘atlarini ko‘radigan bo‘lsak, 2021-yilda eng past o‘shish sur‘ati kuzatilib 86,0 % qayt etilgan, shundan so‘ng 2022-yillarda yana o‘shish tendensiyasiga ega bo‘lib, joriy davrda esa ko‘rsatkich 121,3 % qayd etilganini ko‘rishimiz mumkin.

Asosiy kapitalga investitsiyalar o‘shish sur‘atlari dinamikasi, % da



Jami investitsiyalar hajmida, markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalarning ulushi, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan ulushi 0,5 punktga ko‘payib, 10,1 % ni yoki 4 339,0 mlrd. so‘mni tashkil etdi. Mos ravishda, markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan 38 774,2 mlrd. so‘m yoki jami investitsiyalarning 89,9 % ulushi o‘zlashtirilib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 0,5 punktga kamaydi.







Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar (2025- yil yanvar-dekabr)

	mlrd. so'm	o'sish sur'ati, % da	hajmga nisbatan, % da
Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar	43 113,2	121,3	100,0
Markazlashgan investitsiyalar:	4 339,0	126,7	10,1
Budjet mablag'idan	765,2	103,4	1,8
Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi	-	-	-
O'zbekiston Respublikasi kafolati ostida bo'lgan chet el kreditlari	3 573,8	133,8	8,3
Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi	-	-	-
Markazlashmagan investitsiyalar:	38 774,2	120,7	89,9
Korxonalar o'z mablag'lari	4 096,6	134,8	9,5
aholi mablag'lari	2 510,6	105,8	5,8
to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya va kreditlar	31 799,6	120,4	73,8
tijorat banki kreditlari va boshqa qarz mablag'lari	367,4	121,0	0,8


Markazlashgan investitsiyalar manbalari bo'yicha ulushi, % da (2025- yil yanvar-dekabr)



Markazlashmagan investitsiyalar manbalari bo'yicha ulushi, % da (2025- yil yanvar-dekabr)



Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar (jami hajmdagi ulushi, % da)



2025-yil yanvar-dekabr oylarida asosiy kapitalga investitsiyalarning eng yuqori ulishi to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiya va kreditlar hisobiga to‘g‘ri kelib, 31 799,6 mlrd. so‘m yoki jami investitsiyalarning 73,8 % tashkil etdi.




Hududlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar


Hududlar	Jami		shu jumladan: to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiya va kreditlar	
	mlrd. so‘m	o‘shish sur‘ati, % da	mlrd. so‘m	o‘shish sur‘ati, % da
➤ Viloyat bo‘yicha	43 113,2	121,3	31 799,6	120,4
shaharlar:				
➤ Navoiy	6 239,7	105,5	5 133,6	110,7
➤ Zarafshon	1 381,1	111,1	531,9	146,0
➤ G‘ozg‘on	869,5	2,5 m.	779,8	2,7 m.
tumanlar:				
➤ Karmana	9 464,3	141,2	5 324,2	137,1
➤ Konimex	2 448,0	2,0 m.	1 522,0	3,7 m.
➤ Qiziltepa	1 467,9	130,9	702,2	180,1
➤ Navbahor	1 839,2	2,3 m.	817,9	2,6 m.
➤ Nurota	9 013,4	2,5 m.	8 578,9	2,7 m.
➤ Tomdi	5 027,0	41,4	4 726,4	41,4
➤ Uchquduq	3 324,5	2,0 m.	3 088,4	2,4 m.
➤ Xatirchi	2 038,6	2,4 m.	594,3	3,3 m.

– yuridik va jismoniy shaxslar bo‘lib, qarorlarni qabul qiluvchi va o‘z mablag‘lari, qarz mablag‘lari yoki jalb qilingan mablag‘larni investitsiya ko‘rinishida investitsion ta‘minlab beruvchi investitsion faoliyat subyektlari hisoblanadi.

2025-yil yanvar-dekabr oylari yakunlari bo‘yicha hududlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalarning o‘shish sur‘atlari, % da



Hududlar kesimida jami asosiy kapitalga investitsiyalar ulushi, % da




2025- yilning yanvar-dekabr oylarida jami asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalarning asosiy qismi, ya’ni 57,3 foizi viloyatning uch hududida, jumladan Karmana tumanida - 21,9 %, Nurota tumanida – 20,9 % va Navoiy shahrida – 14,5 % investitsiyalar o‘zlashtirildi.



Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning texnologik tarkibi (2025-yil yanvar-dekabr)


	Jami	Shu jumladan, mulkchilik shakllari bo'yicha	
		davlat	nodavlat
Jami, mlrd. so'm	43 113,2	4 087,0	39 026,2
<i>shu jumladan:</i> umumiy hajmga nisbatan, % da	100,0	9,5	90,5
qurilish-montaj ishlari	25 108,1	2 398,1	22 710,0
mashina, uskunalar, transport vositalari ishlab chiqarish va xo'jalik jihozlari	15 465,0	1 433,6	14 031,4
boshqa harajatlar	2 540,1	255,3	2 284,8

Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning texnologik tarkibi, mlrd. so'm



2025-yil yanvar-dekabr oylarida asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning texnologik tarkibida Navoiy viloyati bo'yicha mashina, uskunalar, qurilish-montaj ishlari- 58,2 foiz , transport vositalari ishlab chiqarish va xo'jalik jihozlari ulushi- 35,9 foiz hamda boshqa xarajatlar- 5,9 foizni tashkil etdi.

Asosiy kapitalga investitsiyalarning takror ishlab chiqarish tarkibi, % da




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalarning o'zlashtirilishi: qishloq xo'jaligida 2 168,0 mlrd. so'm (jami investitsiyalar hajmidagi ulushi 5,0 %), qurilishda 569,1 mlrd. so'm (1,3 %), tashish va saqlash sohasida 553,7 mlrd. so'm (1,3 %), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda 309,4 mlrd. so'm (0,7 %), ulgurji va chakana savdo, motorli transport vositalari va motosikllarni ta'mirlashda 220,7 mlrd. so'm (0,5 %), turar-joy qurilishiga investitsiyalarda 1 390,7 (3,2 %), elektr energiyasi, gaz, bug' va kondensiyalangan havoda 11 309,3 mlrd. so'm (26,2 %), ishlab chiqarish sanoatida 17 930,2 mlrd. so'm (41,6 %), tog'-kon sanoatida 5 238,4 mlrd. so'm (12,1 %), suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya, chiqindilarni yig'ish va qayta foydalanishda 1 749,0 mlrd. so'm (4,1 %), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 118,4 mlrd. so'm (0,3 %), axborot va aloqada 26,5 mlrd. so'm (0,1 %), moliya va sug'urta faoliyatida 34,9 mlrd. so'm (0,1 %), kasbiy, ilmiy va texnik faoliyatida 26,4 mlrd. so'm (0,1 %), ta'limda 411,9 mlrd. so'm (1,0 %), san'at, ko'ngil ochish va dam olishda 135,5 mlrd. so'm (0,3 %), hamda boshqa faoliyat turlari bo'yicha 921,1 mlrd. so'm (2,1 %) ni tashkil etdi.

**2025-yil yanvar-dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
asosiy kapitalga investitsiyalar tarkibi**
(umumiy hajmga nisbatan, % da)

	Hajmi, mlrd so'm	umumiy hajmga nisbatan, % da	
		2024-y.	2025-y.
Asosiy kapitalga investitsiyalar – jami	43 113,2	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>			
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	2 168,0	2,7	5,0
tog'-kon sanoati	5 238,4	11,4	12,1
ishlab chiqaradigan sanoat	17 930,2	49,0	41,6
elektr energiyasi, gaz, bug' va kondensiyalangan havo	11 309,3	24,1	26,2
suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya, chiqindilarni yig'ish va qayta foydalanish	1 749,0	0,3	4,1
qurilish	569,1	2,4	1,3
ulgurji va chakana savdo, motorli transport vositalari va motosikllarni ta'mirlash	220,7	1,8	0,5
tashish va saqlash	553,7	1,1	1,3
yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	118,4	0,3	0,3
axborot va aloqa	26,5	0,4	0,1
moliya va sug'urta faoliyati	34,9	0,1	0,1
kasbiy, ilmiy va texnik faoliyat	26,4	0,3	0,1
ta'lim	411,9	0,9	1,0
sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	309,4	0,6	0,7
san'at, ko'ngil ochish va dam olish	135,5	0,3	0,3
turar-joy qurilishiga investitsiyalar	1 390,7	3,4	3,2
boshqa faoliyat turlari	921,1	0,9	2,1

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan asosiy kapitalga investitsiyalar (ming so'mda)



Ijtimoiy soha obyektlarining qurilishi (2025- yil yanvar-dekabr oylari)

2025- yilning yanvar-dekabr oylarida umumiy maydoni 716,7 ming kv.m (o'tgan yilning mos davriga nisbatan 103,2 %) bo'lgan 2 025 ta turar joylar, jumladan 620,4 ming kv.m. (o'tgan yilning mos davriga nisbatan 110,4 %) bo'lgan 1 747 ta turar joylar qishloq joylarda ishga tushirildi.


Turar-joylarni ishga tushirish

	<i>Xonadonlar soni, birlik</i>	<i>Maydoni, ming kv.m</i>
Viloyat bo'yicha jami:	2 025	716,7
<i>shaharlar</i>		
Navoiy	76	26,4
Zarafshon	57	20,6
G'ozg'on	14	5,1
<i>tumanlar</i>		
Konimex	40	15,1
Qiziltepa	338	117,4
Navbahor	323	111,3
Karmana	388	131,8
Nurota	225	85,5
Tomdi	12	3,0
Uchquduq	28	9,3
Xatirchi	524	191,2




Bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'atlari (2025- yil yanvar-dekabr oylari)

2025-yil yanvar-dekabr oylarida Navoiy viloyatida jami 16 192,6 mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 106,8 foizni tashkil etdi.



2025-yil yanvar-dekabr oylarida umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi




2025-yil yanvar-dekabr oylarida yangi qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 5 333,0 mlrd. so'mni tashkil etdi. Shuningdek, jami yangi qurilish ishlari hajmidagi yirik qurilish tashkilotlari ulushi 39,1 foizni tashkil etdi.




Qurilish ishlari hajmining tarkibi va ulushi (2025- yil yanvar-dekabr oylari)

Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli, davlat va nodavlat bo'lgan korxonalar va tashkilotlar tarkibi bo'yicha bo'linadi.



Qurilish ishlarida yirik tashkilotlar ulushi yuqori bo'lgan tumanlar, (%) da



Ma'lumot uchun: qurilish ishlari hajmi bu - o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy ta'mirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.




Bajarilgan qurilish ishlari hajmida yirik tashkilotlarning ulushi va o'sish sur'ati, % da





Qurilish ishlari umumiy hajmida kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulushi, % da




Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2025-yil yanvar-dekabr oylarida qurilish ishlarini bajarigan boshqa tashkilotlarga nisbatan kamayganligi kuzatildi. Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 28,5 foizi to'g'ri kelib, 2025-yil yanvar-dekabr oylari ko'rsatkichi 0,5 punktga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 105,6 foizni tashkil etgan holda 4 622,2 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.



Qurilish ishlari umumiy hajmida norasmiy sektorning ulushi



ulushi % da, mlrd. so'm



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami 1 082,7 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa 15 109,9 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda 6,7 % va 93,3 % ni tashkil etdi.



Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, % da



Davlat mulki



Nodavlat mulk




Hududlar kesimida mulkchilik shakllari bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari (2025- yil yanvar-dekabr oylari)

	Qurilish ishlari hajmi, mlrd. so'm	Nodavlat mulk		Davlat mulk	
		mlrd. so'm	ulushi, % da	mlrd. so'm	ulushi, % da
Jami	16 192,6	15 110,0	100,0	1 082,6	100,0
Navoiy sh.	1 671,6	1 331,7	8,8	339,9	31,4
Zarafshon sh.	1 185,3	1 185,3	7,8	-	-
G'azg'on sh.	44,4	44,4	0,3	-	-
Konimex t.	218,4	176,3	1,2	42,1	3,9
Qiziltepa t.	1 484,0	1 069,6	7,1	414,4	38,3
Navbahor t.	777,6	716,1	4,7	61,5	5,7
Karmana t.	4 442,2	4 399,0	29,1	43,2	4,0
Nurota t.	537,5	481,3	3,2	56,2	5,2
Tomdi t.	992,8	965,2	6,4	27,6	2,5
Uchquduq t.	420,8	393,9	2,6	26,9	2,5
Xatirchi t.	812,2	741,4	4,9	70,8	6,5



Navoiy viloyati iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari, % da

2024- yil



2025- yil yanvar-dekabr



Ma'lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy hamda yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.




Bino va inshootlar qurilishi

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 39,0 foiz tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 0,1 punktga kamaydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush o'tgan yilning mos davriga nisbatan 0,2 punktga kamayib, 19,9 foizni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa o'tgan yilning mos davriga nisbatan 0,3 foiz punktga ko'payib, 41,1 foizni tashkil etdi.

Jami bino va inshootlarni qurish - 12 813,4 mlrd. so'm.






Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 44,7 % ni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 6,1 % punktga ko'paydi.

Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 55,3 % (6,1 % punktga kamaydi).




Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 6,9 % punktga kamaydi.

Qolgan ulushi esa kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 6,9 % punktga ko'paydi.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari- 453,0 mlrd. so'm.







Hududlar kesimida qurilish ishlari (2025- yil yanvar-dekabr oylarida)

Hududlar kesimida eng yuqori hajm Karmana tumanida (4 442,2 mlrd. so‘m), Navoiy shahrida (1 671,6 mlrd. so‘m) va), Qiziltepa tumanida (1 484,0 mlrd. so‘m) to‘g‘ri keldi.

Eng yuqori hajm (mlrd. so‘m)



Hududlar kesimida eng kam hajm G‘ozg‘on shahrida (44,4 mlrd. so‘m), Konimex tumanida (218,4 mlrd. so‘m) va Uchquduq tumanida (420,8 mlrd. so‘m), to‘g‘ri keldi.





2025-yil yanvar-dekabr oylarida umumiy hajmdan yangi qurilish ishlari hajmi

2025-yilning yanvar-dekabr oylarida hududlar kesimida yangi qurilish ishlari bo'yicha

	Qurilish ishlari, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, % da	Shu jumladan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish va texnik qayta qurollantirish, mlrd. so'm
Navoiy viloyati	16 192,6	106,8	13 644,2
<i>shaharlar:</i>			
Navoiy	1 671,6	103,1	1 191,9
Zarafshon	1 185,3	101,5	918,3
G'ozg'on	44,4	107,5	31,1
<i>tumanlar:</i>			
Konimex	218,4	108,3	146,8
Qiziltepa	1 484,0	104,6	893,7
Navbahor	777,6	108,7	563,5
Karmana	4 442,2	5,5 m	4 284,2
Nurota	537,5	81,2	416,9
Tomdi	992,8	25,4	937,3
Uchquduq	420,8	128,2	379,8
Xatirchi	812,2	108,9	610,0



Ma'lumot uchun: Yangi qurilish - yangi quvvatlarni oshiriladigan asosiy, yordamchi va xizmat ko'rsatish maqsadlari uchun obyektlar (bino va inshootlar) kompleksini qurish.